

BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARINING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH TAMOYILLARI

Norimbay Usmanovich Musayev
Musika ta'limi kafedrası o'qituvchisi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

ANNOTATSIYA

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda modulli o'qitish texnologiyalarining samarali ekanligi mazkur maqolaning mazmunini tashkil etishadi. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisini o'qitish uchun modulli yondashuvning dolzarbligi mehnat bozorini tahlil qilish imkoniyatidan foydalanish, ilgari amaliy o'qitish bilan ta'minlanmagan amaliyotning keskin kasbiy ehtiyojlarini aniqlashdir.

Kalit so'zlar: modulli o'qitish texnologiya, kompetensiya, musiqa ta'limi o'qituvchisi, oliy ta'lim.

Zamonaviy jamiyatda, oliy ta'lim inson faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qiymati va asosiy kapitali yangi bilimlarni qidirish va o'zlashtirishga, nostandart qarorlar qabul qilishga qodir mutaxassisni tayyorlash ekanligini tushunishdir. Zamonaviy pedagogik fanning muhim yo'nalishi o'qituvchini o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan vositalar va sharoitlarni izlashdir. Bu borada Prezidentimiz Sh. Mirziyoevning "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" degan fikrlari ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan oliy ta'limning pedagog xodimlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Ijtimoiy hayot taraqqiyoti O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi oldiga bir qator o'ta muhim va dolzarb vazifalarni amalga oshirish masalasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Bulardan ayrimlari sifatida ta'lim sifatini tubdan yaxshilash, fanlar, mavzulararo, ta'lim bosqichlari o'rtasidagi aloqadorlik va uzviylik muammolarini hal qilish, ta'limning barcha uchun ochiqqligini ta'minlash, dunyoning rivojlangan ilmiyta'limiy muhiti bilan integratsiyalashuv jarayonlarini tezlatish kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin. Bunday muammolarni hal qilish maqsadida o'quv-tarbiya jarayoniga modulli o'qitish texnologiyalarini joriy etish ta'limda quyidagi imkoniyatlarni ochib berishga xizmat qiladi:

ta'lim jarayoni mazmunini tanlash, rejalashtirish, loyihalash, tashkil qilish, amalga oshirish, boshqarish va sifatini nazorat qilish metodologiyasini takomillashtirish;

ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, uni individuallashtirish;

o'quv jarayonida ta'lim subektlari-pedagog va o'quvchi hamkorlik faoliyati mazmunining yangi shakllarining yuzaga kelishi;

bo'lajak pedagoglarni kasbiy kompetentligini takomillashtirish.

Mamlakatimiz ta'lim tizimi oldiga ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, uning ochiqqligi, insonparvarligi hamda shaxsga yo'naltirilganligi, ta'limning barcha bo'g'inlari orasidagi uzviylikni, dunyo ta'lim muhiti bilan integratsiyalashuvini ta'minlash kabi bir qator muhim dolzarb vazifalarni bajarish masalasini ko'ndalang qilib qo'ydi.

O'quvchi shaxsiga ta'lim-tarbiya beradigan umumta'lim maktablari oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishi, avvalo, oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarni sifatli tayyorlashga bog'liq. Mutaxassislarning kompetentlilik darajasi, kasbiy mahorati, pedagogik jarayonlarni to'g'ri va maqsadli boshqara olishi o'quvchi shaxsini tarkib toptirish muvaffaqiyatini belgilab beradi. Bu oliy pedagogik ta'lim tizimi, umuman ta'lim va kadrlar tayyorlash uchun mas'ul bo'lgan barcha tashkilotlar oldiga bo'lajak pedagoglarning barkamol shaxsni tarbiyalash jarayonlarini tashkil qilish va boshqarishga kasbiy tayyorgarligi masalalarini yanada mukammal tadqiq qilishdek dolzarb vazifani qo'yadi.

Bunday maqsadlarga erishish yo'lida oliy ta'lim tizimi o'quv-metodik bazasini yanada mustahkamlash, talabalarni har tomonlama intellektual bilim olishlari uchun sharoitlarni yanada yaxshilash, kadrlarning ilmiy salohiyatini, kasbiy kompetentligini oshirish lozim bo'lmoqda.

"Kompetensiya" so'zi fanda ilk bor XX asrning 50-60-yillarida qo'llangan va insonning biror faoliyatni amalga oshirish layoqatini bildirgan. "Kompetensiya" bilim, ko'nikma va malakalarning samarali qo'llanishi; "kompetentlilik" esa muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan layoqatdir. Shu bois har bir fanni o'qitish jarayonida uning mazmuni hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga doir kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kasbiy kompetentlilik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.

Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish muammosining dolzarbligi musiqa o'quv yurtlarini tugatgan bitiruvchilarning ko'pincha mustaqil kasbiy faoliyatga layoqatsizligi bilan bog'liq. Kamchiliklar orasida musiqiy madaniyat va san'at sohasidagi bilimlarning cheklanganligi, musiqa ta'limi metodologiyasi, mutaxassis tayyorlash va ijrochilik amaliyotining yetarli emasligi alohida ahamiyatga ega. Ko'pincha yosh mutaxassisning to'liq ijodiy qobiliyatsizligi mavjud. Shunday qilib, bo'lajak musiqa o'qituvchisining ijodiy faoliyatini, o'zini o'zi anglashga hissa qo'shadigan, bitiruvchining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishga ta'sir qiluvchi omillarni ajratib ko'rsatish kerak.

San'at – o'z mohiyati va ijtimoiy mazmuniga ko'ra har qanday milliy madaniyatning uzviy qismi sifatida muayyan davlat, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti darajasini belgilovchi eng muhim va ustuvor mezonlardan biridir.

San'at yo'nalishidagi ta'lim, u qanday bo'lishi kerak?

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan ijodkorlarga qaratilayotgan e'tibor va ehtirom soha vakillarining mehnatini rag'batlantirishi bilan birga har bir ijodkorning ijtimoiy mas'uliyatini ham oshirib, o'z faoliyatiga yangicha nuqtai nazar bilan qarashga da'vat etdi. Xususan, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan "Milliy madaniyatni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorda madaniyat va san'at yo'nalishida malakali kadrlar tayyorlash tizimida ta'lim-tarbiya va maxsus ijodiy-kasbiy dasturlar o'rtasida uzviylik va vorislik tamoyillarining yo'qligi, talaba-yoshlarni o'qitishda yakka tartibdagi o'quv uslubidan samarali foydalanilmayotgani alohida qayd etilgan edi.

Musiqiy qobiliyat. Ma'lumki, musiqani o'rganishning boshlang'ich bosqichida musiqiy o'quv jarayonda uning rivojlanishiga katta e'tibor beriladi va o'ziga xos musiqiy qobiliyatlar yetakchi aniqlovchi

hisoblanadi. "Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi" asarida B.M.Teplov shunday yozadi: "Musiqiy qobiliyat" musiqiy faoliyatning bir qismi sifatida, har qanday boshqa musiqadan farqli o'laroq, lekin shu bilan birga musiqiy faoliyatning har qanday turi bilan bog'liq bo'lgan individual psixologik xususiyatlar majmuidir"[3] degan fikrlarni bildirgan.

Zamonaviy musiqa ta'limi o'qituvchisi duch keladigan birinchi umumiy muammo tavsiya etilayotgan dasturning o'zgaruvchanligi va uning cheklanganligi bilan bog'liq. Pedagogik muammoli vaziyatlar ko'pincha o'qituvchi ega bo'lishi kerak bo'lgan barcha o'quv majmuasidan, masalan, ishchi rejalaridan foydalanish kerak bo'lganda ularni qanday amalga oshirishni tushunmasligidan yuzaga keladi. Bu, ayniqsa, mintaqaviy o'quv muassasalaridagi va oliy ta'limda yetarlicha kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lmagan musiqa o'qituvchilariga tegishli. Ularning bunday vaziyatga tushishi ishchi rejadagi o'qitilishi kerak bo'lgan mavzular, ko'rsatmalar, qo'shimcha didaktik materiallarni elektron shaklda taqdim etish uchun texnik vositalar (videoproektor, elektron doska va boshqalar) maktabda bo'lsa ham ko'pincha o'qituvchiga berilmaydi, berilganda ham o'qituvchi ishlatish layoqatiga ega emasligidan kelib chiqadi. Agar biz tuman hududlari haqida gapiradigan bo'lsak, bunday vositalarni mustaqil ravishda izlash juda qiyin bo'lib ko'rinadi, aksariyat hollarda hech qanday urinish ham bo'lmaydi. Tavsiya etilgan dasturlarning mualliflari o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan materiallarni ochiq elektron nusxada nashr ettirmaydilar, kitob do'konlarida yangi to'plamlar har doim ham mavjud emas, ammo kutubxonalarda faqat eskirgan nusxalarni topish mumkin ammo, yangi ijod etilgan musiqiy asarlarni har doim ham topa olmasligini aytib o'tishdi. Ushbu muammo musiqa o'qituvchilariga taklif etilayotgan kompetensyaviy talablar sababli dolzarb bo'lib bormoqda.

Zamonaviy sharoitlarda musiqa ta'limi o'qituvchisi faoliyatini tavsiflovchi ikkinchi umumiy muammo - bu asosiy o'quv-uslubiy majmualarda va boshqa materiallarda, ba'zan esa mavhum sharoitlarda, ularni amalga oshirish usullarida tavsiya etiladigan o'qitish metodlarining o'zgaruvchanligi, ular bo'yicha har doim ham kasbiy tayyor bo'lmaganligi, musiqa tanlovlarining muayyan ish sharoitlarida qo'llanilishi. Shu bilan birga, ochiq darslarda va boshqa dars shakllarini amalga oshirish jarayonida musiqa yordamida musiqa o'qitish, ta'lim berish va shaxsni rivojlantirishning mavjud keng ko'lamli faoliyatlarini amalda namoyish eta olmasligi.

Uchinchi umumlashtirilgan muammo - musiqa darsi jarayonida bolalarning musiqiy qobiliyatlarini yuqori darajada o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish sohasidagi o'qituvchilarning malakasi yo'qligi. Zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarda musiqa darslari mazmunida bo'lishi kerak bo'lgan faoliyat turlari uchun umumiy ko'rsatmalar berilmaganligi. Shu bilan birga, mavjud usullarni tanlash va qo'llash, usullar va vositalarning maqbul komplekslarini shakllantirish bo'yicha aniq tavsiyalar va algoritmlar taklif etilmasligi, bu jihatlariga ijodiy yondoshish malakasiga ega emasligi. Talabalarga musiqiy savodxonlik, solfedjio, bir, ikki ovozli va boshqa musiqiy faoliyat turlarini o'rgatish metodikasi mahalliy musiqachilar va o'qituvchilar tomonidan chuqur ishlab chiqilmagan.

Kasbiy faoliyatning bunday muammoli tarkibiy qismlarini universitetda modulli o'qitish sharoitida o'quv vaziyatlari usuli bilan o'rganish mumkin.

Modulni shakllantirish mezonlari quyidagilardan iborat: modulni turli xil fanlarning bir qismi sifatida va mazmuni, amaliy qiymat huquqini saqlab turib mustaqil dars sifatida o'qitish qobiliyati; maqsadlari va vazifalari, ish beruvchilarning ehtiyojlari va talablariga muvofiq ravishda uni qayta qurish imkoniyati. O'quv modulining bunday moslashuvchanligini ta'minlash uni turli kasbiy guruhlar - boshlang'ich musiqa ta'limi talabalari va shuningdek, ushbu modul ilmiy tadqiqotlar, uslubiy qiziqish

uyg'otishi mumkin bo'lgan bitiruvchi ya'ni, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish imkonini beradi. O'quv modulining turlaridan amaliyotdagi o'qituvchilar, o'quv muassasalarining ma'muriy xodimlari va umumiy va kasb-hunar ta'limi muassasalari metodistlari uchun malaka oshirish doirasida mehnat bozori bilan bog'liq bo'lgan pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish vositasi sifatida ham foydalanish mumkin.

Modul dasturlarning maqsadi albatta malakali mutaxassisni yetishtirishga xizmat qiladi. Modul dasturini tuzishda ana shu mutaxassisga qanday talablar tizimi qo'yilayotgan ekanini aniqlab olishdan boshlanadi. Bugungi kunda bo'lajak musiqa o'qituvchisi mutaxassisga qo'yiladigan umumiy talablar tizimi o'rganilib ularni uch asosiy guruhga ajratishimiz mumkin. Musiqa ta'limi o'qituvchisining kompetentligini aniqlovchi kriteriyalarni quyidagi kategoriyalarga bo'lish mumkin.

Pedagoglarning fikricha, agar modul texnologiyasi asosida o'qitish to'g'ri tashkil etilsa, ta'limning har qaysi bosqichida o'quvchi, talabalar yangi o'quv materiallarini o'zlashtiradi, ko'nikma va malakasini takomillashtiradi. Modul algoritm asosida ishlab chiqiladi va quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: aniq maqsad, nazariy bilim, amaliy mashg'ulot, uslubiy ko'rsatma yo'l-yo'riqlar, nazorat, o'zlashtirilgan bilim, malakani sinash va baholash va hokazo.

Modul texnologiyasi asosida o'qitish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- modulli o'qitishdagi dastlabki shart-sharoitlarni tahlil etish;
- modulning o'quv maqsadlari va mazmunini belgilash;
- o'quv-didaktik materiallari va o'qitish vositalarini tayyorlash;
- nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- talabalarning olgan nazariy bilimi va amaliy ko'nikmalarini baholash.

Yuqorida keltirilganlarning hammasi ta'lim oluvchilarni fikrlash darajasini kengaytirish, yuz beradigan voqea-hodisalarning sababini anglash, izlanishni o'rgatishga qaratilgan. Modul tizimining mohiyati shundan iboratki, ta'lim oluvchilar ta'limning alohida birlik modullarini izchil holda ketma-ket o'zlashtiradilar.

1. Modulli o'qitishdagi dastlabki shart-sharoitlarni tahlil etish. Musiqa fanida modul tizimini qo'llash eski modul birligi o'rniga tezda yangisini ishlab chiqish va amalda qo'llash imkoniyatini beradi. Musiqa fanida modul tizimi asosida ta'lim berishning afzalligi shundaki, e'tibor ko'proq ta'lim oluvchiga, uning o'z ustida mustaqil ishlashi, hamda o'z-o'zini nazorat qilishiga qaratiladi. Modul tizimi asosida o'qitishning davomiyligi ta'lim oluvchining tayyorgarligiga va kasbiy malakani qay darajada egallash istagiga bog'liq. O'qitishni ta'limning istagan modelidan keyin to'xtatish mumkin.

Musiqa fanini modul texnologiyasi asosida o'qitishga tayyorgarlik ko'rish, ya'ni nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish uchun dastlab uch yo'nalishda ish olib boriladi.

Birinchidan, talabalarning tayyorgarlik holati tahlil qilinib, ularning bilimi, o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasi va qobiliyati aniqlanadi. Chunki ularning ta'lim olishida o'ziga ishonchi, qobiliyati, shaxsiy holati, va yoshi muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning qobiliyatiga ko'ra tabaqalashtirish asosida ularga fanni mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi. Ikkinchidan, mavjud shart-sharoitlar tahlil etiladi. U o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: huquiy shart-sharoitlar; Bunda ta'lim jarayoniga taaluqli o'quv rejasi va dasturlar o'rganiladi. O'quv jarayonini tashkil etish bilan bog'liq shart-sharoitlar; Bunda modul tarkibiga kirgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar tashkil qilinadigan joy va boshqa sharoitlar o'rganiladi. Texnikaviy shart-sharoitlar; Bunda texnik jihoz va moslamalar, o'quv va yordamchi audiovizual vositalarining mavjudligi, holati o'rganiladi.

Uchinchidan, o'tiladigan mavzular tahlil qilinib, modullar mazmunini belgilashda zarur bo'ladigan turli manbalar, ya'ni o'quv materiallari va boshqalar o'rganiladi. Masalan: 1) musiqa sohasi bo'yicha darslik, qo'llanma va boshqa adabiyotlar; 2) ilmiy adabiyotlar (Elektron darsliklar, Internet ma'lumotlari) o'rganiladi.

2. Musiqa fanida modulning o'quv maqsadi va mazmunini belgilash. Modul texnologiyasi asosida o'qitishda dastlab musiqa fanining o'qitish maqsadi va mazmuni, modullarning maqsadi va mazmuni belgilanadi. O'quv maqsadlari yakunida ta'lim-tarbiya natijasi sifatida talaba erishishi lozim bo'lgan bilim, malaka va shaxsiy ko'nikmalar belgilanadi. O'quv maqsadlari tarmoq ta'lim standarti talablari asosida ishlab chiqiladi. Modulni o'rganish maqsadi qanchalik aniq bo'lsa, unga erishilganlik darajasini baholash shunchalik oson bo'ladi.

3. Modul bo'yicha o'quv-didaktik materiallar va o'quv vositalarini tayyorlash. O'quv didaktik materiallar va o'quv vositalari deyilganda bilim va malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi axborot manbalari va cholg'u asboblari tushuniladi. Modulli texnologiya asosida musiqa fanini o'qitishda o'quv didaktik materiallar sifatida nazariy va amaliy darslarda matnli vizual vositalar, masalan, o'quv adabiyotlari, elektron darslik va ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, uslubiy ko'rsatmalardan foydalaniladi.

4. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish. Modul tarkibiga kiritilgan nazariy mashg'ulotlarni ketma-ketlikda o'tkazish tavsiya etiladi. Musiqa fanlarini modul texnologiyasi asosida o'qitishda darslarni qiziqarli tashkil etish lozim. Bu ta'lim oluvchilar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularning shu sohaga yoki keyingi darslarda o'rganiladigan mavzuga qiziqishiga yordam beradi.

5. O'quvchi-talabalarning nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakasini baholash. Musiqa fanini modul texnologiyasi asosida o'qitishda talabalar bilimi va ko'nikmalari o'quv maqsadlariga muvofiq holda muntazam baholanishi kerak. Baholash pedagogik tamoyillar hamda Davlat ta'lim standartlariga asoslanadi. Baholash orqali butun modulni o'rganish jarayoni va uning barcha kompetensiyalari maqbulligi tekshirilib ko'riladi. Bu bilan modulli o'qitish kutilayotgan natijani berayotgani yoki bermayotgani aniqlanadi. Talabalarga tafakkur qilish va ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar beriladi. Har bir topshiriq yoki mashqdan keyin bajarilgan ishlar baholanadi. Natijalarni guruhlarda ochiq oydin va samimiy muhokama qilish ham yuqori samara beradi. Modulni o'rganish oxirida yakuniy suhbat uchun vaqt ajrat qilishi kerak. Bu – talabalar faoliyati natijalari, ularning amalga oshirgan va oshirmagan ishlari yuzasidan mulohaza yuritish uchun yaxshi imkoniyat beradi.

REFERENCES:

1. Umarova, A. I. Q. (2021). Mustaqillik yillarida o'zbek maqom san'ati taraqqiyotining ustivor tamoyillari (anana va zamonaviylik). *Academic research in educational sciences*, 2(10), 1144-1147.
2. Умарова, А. (2021). Формирование познавательно-творческой активности у учащихся старших классов в процессе изучения творчества узбекских композиторов. *Scientific progress*, 1(5), 481-485.
3. Umarova, A. I., Miskino, S. Z. (2022). Cluster approach to the educational process in the organization of preschool education. *International Conference on Social and Humanitarian Research*, 1(2), 74-76.

4. Умарова, А. И., Мискинова, С. З., Кимсанов, О. (2022). Таълим технологиялардан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари ва аҳамияти. *О'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar*, 2(9), 207-210.
5. Умарова, А. И., Абдалова, С. Р., Мискинова, С. З. (2022). Таълим оловчиларни етакчилик қобилиятларини аниқлаш ва ташхислаш. *О'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar*, 2(9), 203-206.
6. Umarova, A. I. (2022). Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari. *Роль науки в развитии современного государства*, 1(1), 112-117.
7. Umarova, A. I. (2022). Children with development problems music education and correction rhythmic. *Экономика и социум*, 95(4), 507-510.
8. Умарова, А. И. Қ. (2022). Ривожланишида муаммоси бўлган болаларни музикий тарбияси ва коррекцион ритмика. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 1058-1065.
9. Umarova, A., & Nazarova, S. (2021). O'quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda musiqaning o'rni. *Scientific progress*, 2(7), 1291-1294.
10. Умарова, А. И., & Татаева, Д. А. (2021). Реализация межпредметных связей. Использование музыки в образовательном процессе. Преподавание биологии. *Экономика и социум*, (7), 503-506.
11. Umarova, A. I., Davladiyarova, S. (2021). Formation of cognitive and creative activity in students of the senior classes in the process of studying the creativity of Uzbek composers. The importance of singing to develop speech fluid in logopedic rhythmic activities. *ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ*, 3(13), 692-696.
12. Тригулова, А. Х., & Умарова, А. (2020). Формирование познавательной-творческой активности у учащихся старших классов в процессе изучения творчества узбекских композиторов. *Актуальные проблемы искусства: история, теория, методика*. 5(15), 270-273.
13. Умарова, А. И. (2019). Хореография в развитие творческих способностей школьников. *Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў*, 2(5), 175-185.
14. Kimsanov, O. I. (2021). Formation of musical abilities among students of music schools. *Экономика и социум*, 83(4), 1-5.
15. Тригулова, А. Х., Кимсанов, О. (2021). Музыкальные способности и их значение в процессе обучения учащихся музыкальных школ. *Uchinchi renessans davrida maktabgacha ta'lim-tarbiyaning roli*, 2(4), 50-53.
16. Kimsanov, O. (2021). Developing musical skills in the process of studying large-scale works in art school students. *Science and Education*, 2(12), 597-601.
17. Trigulova, A. K., & Kimsanov, O. (2021). Musical sense of hearing and methods of its development in the process of piano performance. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 1002-1004.
18. Kimsanov, O. I. (2022). O'quvchilarni musiqa darslarida ma'naviy va axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari. *Современные исследования в психологии и педагогике*, 1(1), 240-245.
19. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Barcha bolaga birdek sifatli ta'limni ta'minlash davr talabi. *Inklyuziv ta'lim*, 1(1), 243-246.
20. Кодирова, Ф. У. (2021). Методик кластер замонавий мактабда соғлом рақобат ричаги. *Замонавий таълим*, 2(2), 46-51.

21. Кодирова, Ф. У. (2021). Педагогический инновационный кластер в инклюзивном образовании. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 521-527.
22. Usmanovna, Q. F., Olimovich, A. A., & Shuxratovna, S. Z. (2021). Early Inclusion is the Best Way to Socialize Children with Coxle Implants. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 8887-8897.
23. Кодирова, Ф. У. (2020). Значение методического кластера в практики высшего и общеобразовательного образования. *Актуальные научные исследования*, 1(1), 5.
24. Miskinova, S. Z. Q. (2021). Botir zokirov ijodi va o'zbek estradasi taraqqiyoti masalalari. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 1178-1181.
25. Miskinova, S. Z. Q. (2022). Bolalarda cholg'u musiqa ijrochiligini rivojlantirish. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 1066-1071.
26. Miskinova, S. Z. (2022). Musiqa nazariyasi va uning tarixidan o'quvchilarga boshlang'ich bilim berish ahamiyati va mazmuni. *Роль науки в развитии современного государства*, 2(1), 118-123.
27. Miskinova, S. Z. (2022). Bolalarda cholg'u musiqa ijrochiligini rivojlantirish 2. Musiqa san'ati sohasida fanlarning o'qitilishining ilmiy-metodik asoslari, 2(2), 45-51.
28. Miskinova, S. Z. (2022). Development in children of instrumental musicing. *Экономика и социум*, 98(5), 126-129.